O'quv jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish deganda, pedagogik, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini birlashtirish, umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatish orqali faoliyat olib borish holati tushuniladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv predmetlar bo'yicha o'zlashtirish darajasi darsning sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ta'limning sifatini oshirishda darsni to'g'ri rejalashtirish va maqsadni to'g'ri va aniq belgilab olish muhim

ahamoyatga ega. Maqsadni belgilashda natijaga erishish uchun ketadigan vaqt, ta'lim oluvchining ehtiyoji va imkoniyatlari, ta'lim oluvchining maqsadga erishishga harakat qilishga yo'naltirilgan uslublar va natijani aniqlaydigan nazorat turlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday maqsadga erishish uchun o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilish zarur [4].

Pedagogik texnologiya - ta'lim uslublari, usullari hamda tarbiyaviy vositalar yig'indisi, u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalar majmuidir. Pedagogik texnologiya jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi [2].

Demak, pedagogik texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo'yicha ta'sir o'tkazish faoliyatidan iboratdir. Axborot texnologiyasi – axborotga ishlov berish uchun ushbu axborotdan foydalanuvchi jarayonlarning sermehnatligini kamaytirish va ularning ishonchliligini va tezkorligini oshirish maqsadida zamonaviy kompyuterdan foydalanish bilan bog'liq jarayonni ifodalaydi [2].

Ta'lim tizimining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagi asosiy funksiyalar va talablarni bajaradi:

- ta'lim oluvchilar va ularning axborot muhitidan foydalanish faoliyatlarini qayd etish;
- ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyatini maslahat yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni hisobga olish;
- ta'lim oluvchilarga zaruriy o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya qilish;
- o'quv jarayonida, ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning test yordamida, shuningdek, og'zaki va yozma usuldagi nazoratini tashkil qilish;
- axborot bazasida ta'lim oluvchilarga tavsiya qilingan o'quv materiallaridan, qo'shimcha adabiyot va boshqa vositalardan foydalanishi uchun o'quv muassasasi axborot resurslaridan masofadan turib foydalanish imkonini yaratish;

virtual laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy topshiriqlarni bajarishda masofadan turib ta'lim muassasasi xodimlarining maslahati va boshqa yordamlarini uyushtirish va hokazo [4].

O'quv jarayonini texnologiyalashtirish, ya'ni o'quv jarayonini kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirish orqali o'quv jarayonini samarali tashkil etishga erishish mumkin[3]. Multimedia texnologiyalari asosida tashkil etiladigan o'quv jarayonida o'quv predmetlarining asosiy mazmuni quyidagi o'quv-uslubiy materiallardan iborat bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Multimediyaga asoslangan o'quv predmeti.


O'quv-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda qo'llash o'qituvchining bilimi, malakasi va tajribasiga bog'liq. Bu esa dars jarayonida o'qituvchining tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Talaba(o'quvchi)lardan esa ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodali bo'lish kabi sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talaba(o'quvchi)ni kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'tkazilgan dars mashg'ulotlari yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z

munosabatlarini bildirishlariga, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Ma'lumki, bizga ayni paytda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan kadrlar lozim. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarinin o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir[3].

Dars jarayonini tashkil etish va dars mazmunini talaba(o'quvchi)larga yetkazish o'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati, tajribasiga nihoyatda bog'liq. Darsni mustahkamlash yoki o'tilgan dars bo'yicha talaba(o'quvchi)lar bilimini baholashda yuqorida sanab o'tilgan interfaol usullarning qaysi biridan foydalanish darsning mazmuni va o'qituvchining mahoratiga, tajribasiga, bilimiga bog'liq.

Masalan, "Python dasturlash tili operatorlari" mavzusini o'rganishda asosan 4 ta asosiy tayanch tushuncha yoki savolni qarab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni: arifmetik operatorlar, o'zlashtirish operatorlari, taqqoslash operatorlari, mantiqiy operatorlar.

Shu sababli guruh(sinf)da 26 nafar o'quvchi bo'lsa, ularni 6 nafardan 4 ta kichik guruhga ajratish (2 ta kichik guruhda 6 nafar, 2 ta kichik guruhda esa 7 nafar talaba-o'quvchi) va ularning har biriga yuqoridagi topshiriqlarni bajarish uchun guruhlariga nom tanlash yo'li imkoniyatini berish kerak. Masalan, har bir kichik guruh o'z nomiga "Dasturchi", "Operator", "Ijodkor", "Zukko" kabi ega bo'lsin. Kichik guruhlar teng kuchli bo'lishi uchun guruh(sinf)dagi talaba(o'quvchi)larning bilim darajasiga qarab oldindan shakllantirishgan bo'lishi maqsadga muvofiq sanaladi. (2-rasm)



2-rasm. Kichik guruh a‘zolarining topshiriqlar almashish tuzilmasi.

Bu kabi texnologiya va usullarni o‘z o‘rnida ishlatish, o‘quvchilarning javoblarini odilona baholab borish, ularning bilimni odilona baholab borish o‘qituvchining tajribasi, mahorati va bilim darajasiga bog‘liq [4].

An‘anaviy o‘quv-uslubiy materiallariga ta‘lim tizimida qo‘llanib kelinayotgan darsliklar, uslubiy ko‘rsatmalar, o‘quv qo‘llanmalari, didaktik tarqatma va ko‘rgazmali materiallar kiradi. Yangi o‘quv uslubiy materiallarga an‘anaviy materiallardan tashqari elektron nashrlar, elektron darsliklar, elektron plakatlar, elektron lug‘atlar zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyaga asoslangan interfaol usullar yordamida yaratilgan o‘quv materiallari, multimedia vositalari, internetdan olingan ma‘lumotlari, virtual laboratoriyalar va boshqa tasviriy-vizual vositalarni kiritish mumkin [4].

Dasturlash nazariyasiga oid bilimlarni amaliyotda qo‘llash kompetentsiyasini egallash uchun ta‘lim oluvchilarda kompyuter qurilmalarini ishlata olish, boshqarish dasturini ishga tushurish, kodlashga oid masalalarni yechishni bilish, sanoq sistemasida amalda bajara olish, algoritm tuzish, dasturlash tillaridan birida masalaga dastur tuza olish, yaratilgan dasturiy mahsulotlarni sinab ko‘rish va taqdimot slaydlari ko‘rinishida taqdim eta olish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ихсанова А.С. Мультимедиа технологии в современном образовании КГКП «Семейский финансово-экономический колледж имени Рымбека Байсеитова»
2. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta’limuassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. Интернаука, 13-2, С. 78-79.
3. Касторнова В.А. Методика создания и использования прикладных программ на основе мультимедиа технологии в обучении информатике. Дис.докт. пед.наук .- М., -1998.
4. Abdullayev A.N. & Egamberdiyeva F.A. “Informatika fanining dasturlash tillari bo‘limini o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi” // “Golden brain” Multidisciplinary Scientific Journal, Volume 1, Issue 11, April, 2023, - P. 32-38.
5. Тайлаков У.К. Таълимда мултимедияли электрон ресурсларидан фойдаланиш технологияси// Узлуксиз таълим журнали – Тошкент, 2020. – Махсус сон. – Б. 78-83.(13.00.00 № 9).

OLIV TA'LIMDA TALABALARGA TARBIYA FANINI O'QITISHDA FITRATNING "OILA" ASARINING AHAMIYATI

Ismoilova Marhabo Hamitovna

TAFUPedagogika kafedrası

katta o'qituvchisi

Email: marhaboi576@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgan zamonaviy pedagogik ta'limda talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish, Abdurauf Fitratning "Oila" asari asosida ijtimoiy oila ko'nikmasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar ham talabalar hayotiy ko'nikmalarining rivojlanganlik darajalarini turli aspektlarda tekshirib ko'rilmoqda. Jumladan, talabalarni oilaga tayorlashda ijtimoiy pedagogik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda amaldagi Pedagogika nazariyasi va tarixi, Ijtimoiy pedagogka, Tarbiya darsliklari o'zi bilan chegaralanib qolinmoqda. Xulosa qismida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini Oila asari asosida metodik takomillashtirish bo'yicha takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *Pedagogik ta'lim, tarbiya, talaba, mustaqil hayot, ilmiy-nazariy, asos, takomillashtirish, Abdurauf Fitrat, oila, ehtiyoj, baxtli bo'lish, davlat, jamiyat, kuch, imkoniyat, yoshlar, o'z fikri, yuksak ma'naviyat.*

Mamlakatimizda mustaqillik sharofati bilan oilaning ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy asoslarini takomillashtirish, uning manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida "Oila — jamiyatning asosiy

bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega⁴”, — deb belgilab qo'yilgan. Oila - har bir xalq, millatning davomiyligini saqlaydigan, qadriyatlar barqarorligini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy, jismoniy barkamol qilib yetishtiradigan, ijtimoiy institutdir. Shunga ko'ra, o'zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”da: “Ota -ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'ligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy — axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart”⁵, deb ta'kidlanadi. Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy omillarning ahamiyati nihoyatda ortib borayotgan hozirgi davrda oilani mustahkamlash, qadriyatlar va an'analarni o'zlashtirish, uyg'unlashtirish har bir millatning birinchi darajali vazifasi bo'lib qolmoqda. Buning zamirida milliy tarbiyamiz namoyon bo'ladi.

Taraqqiyotning barcha davrlarida ham “Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini qanday takomillashtirish kerak, Abdurauf Fitratning Oila asarini qanday o'rganish kerak?” degan eng muhim savolga hamisha javob izlab kelgan va bu jarayon uzluksiz davom etmoqda. Olimlar talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish mazmuni deganda o'rganish uchun tanlangan va talabalarning o'zlashtirishlari uchun metodik jihatdan ishlangan boy ijtimoiy, tarixiy qadriyatlar va tajribaning bir qismi sifatida tushunsa, boshqa bir guruh olimlar talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda Abdurauf Fitratning “Oila” asari bilan birga uni o'rganish usullarini ham angelaydi.

Respublikamizda ham Abdurauf Fitratning “Oila” asari ijtimoiy kompetensiyaviy yondashuvga asoslanadi, ijtimoiy kompetensiyalar negizida har bir talabani mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga doir alohida kompetensiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinadi. Tajribada talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish, tarbiya

⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2003. 63 — modda.

⁵ O'zbekiston Respublikasining “Oila kodeksiga sharhlar”. — T.: Adolat, 2000. 142—144 — b.

fanlarini o‘qitishda Abdurauf Fitratning “Oila” asarini pedagogik, metodik talablar asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Abdurauf Fitratning “Oila” asari asosida talabalarga “Tarbiya” fanlarini o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish, mamlakatimiz yoshlarini o‘z fikrini bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi. OTM ta‘lim tizimida talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashga zamin yaratish va mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga samarali foydalanish, bilan bog‘liq topshiriqlar mazmunini takomillashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6 iyuldagi 422-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqolada muayyan darajada xizmat qiladi.

Zero, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”⁶, – deb ta‘kidlanishi tarbiya ta‘limi oldiga mamlakatimiz yoshlarini o‘z fikrini mustaqil hayotga tayyorlashdek yuksak ma‘naviyatli fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo‘yadi. OTMlarining Pedagogika darslarida ham, tarbiya darslarida ham, oliy ta‘limda ham negadir Abdurauf Fitratning Oila asaridan samarali foydalanilmaydi bu talabalarga, mustaqil hayotga tayyorlay olmaslikka sabab bo‘lmoqda.

⁶Mirziyoev Sh. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. – 14-b.

Mustaqillik yillarida tarixiy tajribalardan foydalanishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashda Abdurauf Fitratning “Oila” asarini pedagogik tadqiq etish, oila tarbiyasiga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirish - har bir xalqda doimiy muammo bo‘lib, u muayyan millat va jamiyatda o‘zining ijtimoiy pedagogik xususiyatlariga ega. Shunga ekan, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va Abdurauf Fitratning “Oila” asari asosida oila tarbiyasining maqsad va vazifalarini anglay olish lozim.

Jamiyatning yetuk mahsuli, yaxshi fazilatlar va hayotiy kasb - hunarga ega bo‘lgan barkamol shaxsni yetkazib berishdir. Talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish va Abdurauf Fitratning “Oila” asarini tahlil etar ekanmiz asosan pedagogik turkum fanlar sirasiga mansub bo‘lib, oila tarbiyasining vazifalari keng yoritilgan. D.Axatova., Abdujalilova Sh.A., M.E.Axmedova kabilarning pedagogik tadqiqotlari salmoqli o‘rin tutadi. Adabiy ta’lim sohasida B.Ergashev ⁷., B.Qosimov ⁸., N.Karimov ⁹., I.G‘aniyev ¹⁰., H.Boltaboyev, Sh.Vohidov, D.Toshqulov, Jumladan, professor B.Hosimov Abdurauf Fitratning ijtimoiy - siyosiy va adabiy faoliyati masalasiga, professor N.Karimov Abdurauf Fitratning ijtimoiy faoliyatiga yuksak baho beradi. I.G‘aniyev Abdurauf Fitratning filologik faoliyatini uning she’riyati, adabiy asarlari va “Abulfayzxon” drammasi misolida tadqiq etib, nomzoddik dissertatsiyasi va “Abdurauf Fitrat drammalari poetikasi” (1998) mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. H.Boltaboyev “XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shuningdek, Abdurauf Fitratning ilmiy, adabiy merosini to‘plab, uch jilddik kitob sifatida chop ettirgan. Abdurauf Fitrat merosi falsafa va huquqshunoslik nuqtai nazaridan ham

⁷ Ergashev B. Iz istorii stanovleniya i razvitiya obshestvenno - politicheskix idey djadidizma, ideologiya mladobuxarsev: Tarix fanl.dokt. ... diss.avtoreferati. - Toshkent, 1993;

⁸ Qosimov B. Milliy uyg‘onish. - Toshkent, Ma’naviyat, 2002. 349 -373 -b;

⁹ Karimov N. So‘nggi so‘z..A.Fitrat. Tanlangan asarlar. 2 jild. - Toshkent, Ma’naviyat, 2000. 203 -206 -b.

¹⁰ G‘aniev I. Abdurauf Fitrat: E’tiqod va ijod.- Toshkent, Kamalak, 1994. Abdurauf Fitrat dramalari poetikas Fil.fanl.dokt...diss. - Toshkent, 1998;

tadqiq etilgan. Bu sohada B.Ergashev¹¹ va D.Toshqulov¹²larning tadqiqotlari katta ahamiyatga egadir. Tarix fanlari doktori Sh.Vohidov Abdurauf Fitratning pedagogik xarakterdagi “Oila” asarini forschadan o‘zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan (1998, 2001). Bu mutaxasislarni Abdurauf Fitratning ilmiy pedagogik merosiga murojaat qilishga undaydi. G‘oyibova Sh.O. Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini¹³tadqiq etgan.

Jadid ma’rifatparvari. Abdurauf Fitratdir (1884—1938). U oila tarbiyasiga oid maxsus risola yaratgan, bu risola o‘z davrining Oila konsepti hisoblangan. Umuman, Abdurauf Fitrat ijodini har tomonlama, ayniqsa, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda, tarbiya fanlarini o‘qitishda “Oila” asarini pedagogik muammolari nuqtai nazaridan tadqiq qilish dolzarb masalalardan biridir.

Abdurauf Abdurauf Fitratning ma’naviy -ma’rifiy, pedagogik merosi mustaqillik yillarida keng o‘rganilmoqda pedagogika tarixi sohasida K.Hoshimov, S.Nishoinovalarning darsligi muhim ahamiyatga ega. “Pedagogika tarixi” fanidan darslik¹⁴ hamda M.E.Axmedova tomonidan “Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari uchun” o‘quv qo‘llanmasi¹⁵da ilk bor Abdurauf Fitratning pedagogik merosiga metodik ilmiy baho berildi. Mazkur darslik va o‘quv qo‘llanmalar mustaqillik yillaridan keyin yaratilgan ilk metodik manbalardir.

“Pedagogika tarixi”ga oid Sharq mutafakkirlari va jadid ma’rifatparvarlari, jumladan, Abdurauf Fitratning pedagogik qarashlari hozirgi zamon talablari nuqtai nazaridan yondashilgan holda yoritilgan. Bundan tashqari, M.E.Axmedova tomonidan

¹¹ H.Boltaboev XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi: fil.fanl.dokt...diss.avtoreferati. -Toshkent, 1996.

¹² Tashkulov D. Osnovniy napravleniya politiko - pravovoy misli narodov Uzbekistana vo vtoroy polovine XX - pervoe chetverti XX vv: Fals.fanl.dokt. diss.Avtoreferati, -Toshkent, 1995

¹³ G‘oyibova Sh.O. Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini pedagogika fanlari nozodlik dissertatsiyasi. T.1998 y.143 b

¹⁴ K.Hoshimov, S.Nishonova “Pedagogika tarixi” Darslik.

¹⁵ G.Nijozov. M.E.Axmedova Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlar uchun oquv qo‘llanma. T.2011

Pedagogika nazariyasi va tarixi nomli o'quv qo'llanmasi¹⁶da asosan Abdurauf Fitrat merosi ilmiy-metodik tarzda yoritilgan.

Abdurauf Fitrat pedagogik merosini o'rganish, umumlashtirish va tizimlashtirish uning pedagogik qarashlarining shakllanishiga ta'sir qiluvchi jihatlarni ochib bergan, atoqli ma'rifatparvarning pedagogik faoliyati misolida uning O'zbekiston xalq maorifi tizimi va pedagogik fikrlar rivojlanishidagi o'rnini aniqlagan, Abdurauf Fitrat pedagogik qarashlarini mustaqil O'zbekiston Respublikasi siyosati va o'quv -tarbiya jarayoni vazifalariga uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil qilingan, pedagogik ta'limning zamonaviy tizimida Abdurauf Fitrat darsliklari, g'oyalari va nazariyalarining ahamiyatli jihatlardan foydalanish yo'llarini belgilash muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslangan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki ushbu maqolaning ilmiy ahamiyati pedagogik turkum fanlarni takomillashtirishda OTM larda "Tarbiya" fanini o'qitishda, talabalarni mustaqil hayotga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirishda Abdurauf Fitratning "Oila" asarida oilaga tayyorlash ta'limi mazmunini isloh qilish nuqtai nazaridan monografik tarzda tadqiq etilgani bilan belgilanadi. OTM pedagogik turkum fanlar darsliklari, o'quv qo'llanmalar, talabalarni oilaviy mustaqil hayotga tayyorlash mexanizmlarini yaratishda, fan dasturlarini tuzishda, ma'ruza matnlarini tayyorlashda material, Tarbiya fanini o'qitish bo'yicha magistratura yo'nalishlari uchun pedagogik turkum fanlardan qo'llanmalar yaratish va o'qitishni yanada takomillashtirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashev B. Iz istorii stanovleniya i razvitiya obshestvenno - politicheskix idey djadidizma, ideologiya mladobuxarsev: Tarix fanl.dokt. ... diss.avtoreferati. - Toshkent, 1993;

¹⁶ M.E.Axmedova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" nomli oquv qo'llanma. T.2011

2. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. - Toshkent, Ma’naviyat, 2002. 349 -373 -b;
Karimov N. So‘nggi so‘z. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2 jild. - Toshkent, Ma’naviyat, 2000. 203 -206 -b.
3. G‘aniev I. Abdurauf Fitrat: E’tiqod va ijod.- Toshkent, Kamalak, 1994. Abdurauf Fitrat dramalari poetikas Fil.fanl.dokt...diss. - Toshkent, 1998;
4. H.Boltaboev XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligi va Abdurauf Fitratning ilmiy merosi:fil.fanl.dokt...diss.avtoreferati. -Toshkent, 1996.
5. Tashkulov D. Osnovniy napravleniya politiko - pravovoy misli narodov Uzbekistana vo vtoroy polovine XX - pervoe chetverti XX vv: Fals.fanl.dokt. diss.Avtoreferati, -Toshkent, 1995
6. G‘oyibova Sh.O.Abdurauf Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini pedagogika fanlari nozodlik dissertatsiyasi. T.1998 y.143 b
7. Sh.Olimov Fitrat merosini o‘rganish. Ilmiy tadqiqot ishi. Turkiya 2022 yil. 314 bet
8. K. Xoshimov, Hasanov R. Abdurauf Fitrat. Pedagogika tarixi. - Toshkent, O‘qituvchi, 1996 - 307 -320.
9. K.Hoshimov, S.Nishonova “Pedagogika tarixi” Darslik.
10. G.Niyozov. M.E.Axmedova Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlar uchun oquv qo‘llanma. T.2011
11. M.E.Axmedova “Pedagogika nazariyasi va tarixi” nomli o‘quv qo‘llanma. T.2011
12. M.Xayrullayev. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashxur siymolar, allomalar , adiblar).T.1999 y
13. Axatova D. Abdurauf Fitratning ma’rifiy — pedagogik qarashlari. Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disser. T.N.Qori — Niyoziy nomidagi O‘zPFITI kutubxonasi. Inv. 1229693. — B.10
14. Sh.A.Abdujalilova A.Fitratning Oila tarbiyasiga oid qarashlari Ped.fan.nomz.ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disserT.2005.. — B.128

**VOLEYBOLCHI QIZLARNING HIMOYA HARAKAT TEZKORLIGINI
SIGNAL O‘YINLI MASHQLAR YORDAMIDA
OSHIRISH SAMARADORLIGI**

yoqubovaoyatxon@gmail.com

O.M.Yoqubova

O‘zDJTSU “Voleybol basketbol nazariyasi va uslubiyati” kafedrası oqituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talaba voleybolchi qizlarning himoya harakat tezkorligini mashg‘ulotlar davomida rivojlantirish uchun maxsus o‘lchamli mashqlar majmuini ishlab chiqish va ushbu signal o‘yinli mashqlar yordamida himoya harakat tezkorligini oshirish samaradorligi ochib berilgan

Kalit so‘zlar: voleybol, himoya, texnika, harakat tezkorligi, signal o‘yinli mashqlar

**THE EFFECTIVENESS OF INCREASING DEFENSIVE MOVEMENT
SPEED OF VOLLEYBALL GIRLS USING EXERCISES
WITH SIGNAL GAMES**

O.M.Yokubova

is a teacher of the "Volleyball Basketball Theory and Methodology"
department of UzDJTSU

ANNOTATION

In this article, the development of a set of specially sized exercises for the development of the defensive movement speed of student volleyball girls during training and the effectiveness of increasing the defensive movement speed using these signal game exercises are revealed.

Key words: volleyball, defense, technique, speed of movement, signal play exercises

Tadqiqotning maqsadi: talaba voleybolchi qizlarning himoya harakat tezkorligi malakasini signal mashqli o‘yinlar oqali oshirishdan iborat

Tadqiqotning vazifalari

- talaba voleybolchi qizlarning mashg‘ulotlar davomida to‘p qabul qilish malakasiga tayyorgarlik dinamikasini aniqlash;
- talaba voleybolchi qizlarning maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- mashg‘ulotlar davomida to‘p qabul qilish texnikasi samaradorligini oshirish uchun signalli mashqlar majmuasini ishlab chiqish;

Tadqiqotning usullari: ilmiy -uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, Pedagogik nazorat, pedagogik testlash, matematika va statika usullari, tadqiqotni tashkil qilish.

Tadqiqotning dolzarbligi

Voleybolchilarning to‘p qabul qilish texnikasi voleybol o‘yining asosiy texnik malakasi hisoblanib bu malakani mukammal ijro etilmasa jamoa boshqa texnik malakalarni ham amalga oshira olmaydi. Himoya vaqtida butun jamoa ishtirokchilari ishtirok etishadi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ko‘pincha «harakat tayyorgarligi», «harakat sifatlari», «jismoniy tayyorgarlik», «jismoniy sifatlar» degan atamalar yoki tushunchalar uchrab turadi. Ushbu atamalarning barchasi o‘ziga xos mohiyat va o‘ziga xos tushunchalarga egadir.

Shu bilan bir qatorda jismoniy sifatlarni, ayniqsa, voleybolchilar uchun o‘ta muhim bo‘lgan tezkorlik va sakrovchanlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarda doimo an‘anaviy standart mashqlarni qo‘llash kutilgan natijani bermaydi. Aksariyat mutaxassis olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra qayd etilgan sifatlarni tarbiyalashda nostandart o‘yinsimon mashqlardan foydalanish shug‘ullanuvchilarda

juda katta qiziqish uygotar ekan. Eng muhimi shakllantirillayotgan sifatlarni qisqa vaqt ichida o'ta samarali rivojlanishi isbot qilingan

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asosliligi zamonaviy uslubiy yondashuvlar, informatsion tadqiqot usullaridan foydalanish, yetarli tanlama hajmi, haqiqiy materialni statistik qayta ishlashning to'g'riligi, shuningdek uni chuqur tahlil qilish va talqin qilish bilan ta'minlanadi.

O'yinchi harakat faoliyatining tezligi birinchi navbatda harakatlarni koordinatsiya qiluvchi markaziy nerv sistemasining faoliyatiga munosib bo'lishi lozim. Voleybolchining tezkorligi konkret reaksiya tezligida, jadal siltanishda hamda to'p bilan, to'psiz texnik usullarni bajarish tezligida aniq ifodalanadi. Tezkorlikni rivojlantirish uchun yugurishda qayta tezlanish, velosipedda uchish va shunga o'xshash har xil maksimal chastota bilan bajariladigan siklik mashqlardan foydalaniladi. Qayta tezlanishda maksimal darajaga etkazadigan qilib tezlikni sekin-asta, tekis oshirib borib, harakat amplitudasini kattalashtirish lozim.

Tadqiqotni tashkil qilish

Pedagogik tadqiqot 6 oy davomida olib borildi. Ushbu tadqiqotda UzDJTSU talaba qizlarining SPMO mashg'ulotlar davomida signalliy harakatli o'yinlarni qo'llab o'tkazdik. Talaba qizlarning to'p qabul qilish texnikasi aniqligini quyidagi testlar orqali aniqlab oldik.

T1 o'z o'qi atrofida aylanib 3 metr balandlikda chizilgan 50 sm lik kvadratga 3 metr masofada yuqoridan to'p qabul qilish va uzatish (10 marta)

T2 o'z o'qi atrofida aylanib 3 metr balandlikda chizilgan 50sm lik kvadratga 3 metr masofada pastdan to'p qabul qilish va uzatish (10 marta)

T3 o'z o'qi atrofida aylanib otilgan to'pni pastdan qabul qilish va uzatish (10 marta)

T4 o'z o'qi atrofida aylanib otilgan to'pni pastdan qabul qilish va uzatish (10 marta)

Qo'llanilgan signalli mashqlar

1. Voleybolchi orqa tomonga o'girilib o'tiradi, sherik signali bilan to'pni yerga uradi, voleybolchi o'rnidan turib ogirilib to'pni sherikka yetkazadi.(10 marta)

2. O'yinchilar 5 tadan bo'lib ikkita guruhga bo'linadi, har bir jamoa to'pni faqat yuqoridan bir birlariga uzatgan holda o'n marta o'ynashlari kerak, bu vaqt davomida ikkinchi jamoa o'yinchilari to'p uchun kurashadilar.

3. To'p kiritayotgan sherikka top qabul qiluvchi orqa taraf bilan turadi, to'p kiritayotgan oyinchi to'p kiritishidan oldin signal beradi song kiritadi, to'p qabul qiluvchi ogirilib to'pni 2 zo'naga yetkizadi.(10 marta)

Nazorat va tajriba guruhlaridagi voleybolchi talaba qizlarning yuqoridan va pastdan to'p qabul qilish va uzatish texnik tayyorgarlik darajasini tekshirish uchun tadqiqot boshi va oxiridagi test sinovlari natijalari

№	Test usullari	Tajribadan boshi				Tajribadan oxiri			
		T1	T2	T3	T4	T1	T2	T3	T4
nazorat guruhi									
1	x_i	25.85	25.46	28.31	26.16	26.76	26.35	29.23	26.9
2	\bar{X}	5.17	5.92	5.6	5.2	5.1	5.07	5.6	5.2
3	σ	10.34	10.1	11.3	7.9	10.33	10.1	11.3	10.4
4	t_{ct}					0.7	7.7	0.8	0.8
5						p>0.05	p<0.05	p>0.05	p>0.05
tajriba guruhi									
1	x_i	26.9	26.54	28.39	27.24	21.95	21.97	23.08	22.34
2	\bar{X}	5.38	5.3	5.67	5.44	4.39	4.39	4.6	4.46
3	σ	10.7	10.6	11.3	10.8	8.7	8.7	9.2	8.9
4	t_{ct}					0.8	0.8	0.8	0.8
5						p>0.05	p>0.05	p>0.05	p>0.05

Natijalardan shuni ko'rishimiz mumkinki n/g da tadqiqotdan oldin T1 x_i o'rtacha 25.85 ni korsatayotgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 26.76 ga, σ esa 5.17 dan o'zgarmaganini ko'rishimiz mumkin. N/g da tadqiqotdan oldin T2 x_i o'rtacha 25.46 ni korsatayotgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 26.35 ni korsatdi. σ esa 5.92 dan o'zgargan.

T3 x_i o'rtacha 28.31 ni ko'rsatayotgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 29.23 ni korsatdi.

σ esa 5.6 dan o'zgargan.

T4 x_i o'rtacha 26.16 ni ko'rsatayotgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 26.9 ni korsatdi.

σ esa 5.2 dan o'zgargan.

Tajriba guruhida tadqiqotdan oldin T1 x_i o'rtacha 26.9 ni korsatayotgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 21.95 ga, σ esa 5.38 dan o'zgarmaganini ko'rishimiz mumkin. T/g da tadqiqotdan oldin

T2 x_i o'rtacha 26.54 ni korsatayotgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 21.97 ni korsatdi.

σ esa 5.3 dan o'zgargan.


T3 x_i o'rtacha 28.39 ni ko'rsatayotgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 23.08 ni korsatdi.

σ esa 5.6 dan o'zgargan.

T4 x_i o'rtacha 27.24 ni ko'rsatayotgan bo'lsa, tadqiqotdan keyin 22.34 ni korsatdi.

σ esa 5.44 dan o'zgargan.

3 oy davom etgan tadqiqot yakunida xar ikkala guruhlarda tadqiqot boshida olinga nazorat testlari o'tkizildi. Ular o'rtasida tafovud boor edi. Voleybolchi talaba qizlarning himoya texnik usullarini bajarish darajalarining o'zgarishlarini 1-rasmda ko'rishingiz mumkin.



1-RASM **Nazorat va tajriba guruhi talaba qizlarining yuqoridan va pastdan to'p qabul qilish va uzatish texnik tayyorgarlik darajasining o'rtacha ko'rsatkichining o'zgarishi**

Xulosa. Kuzatuv natijalaridan ma'lum bo'ldiki, malakali voleybolchilar tayyorlash amaliyotida, jumladan, UzDJTS Universiteti qizlarida jismoniy va texnik tayyorgarlikning uzviy bog'liqligi, maxsus jismoniy sifatlar va texnik ko'nikmalarni bir vaqtning o'zida integral xususiyatga xos vaziyatli hamda ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida shakllantirish qo'llanilmagan.

Voleybolchi qizlarning mashg'ulot davomida to'p qabul qilish malakasini oshirishda signal mashqli o'yinlardan foydalanmasligi aniqlandi.

Muntazam qo'llanilgan, noan'anaviy xolatlarda signal oyinli mashqlardan foydalanish top qabul qilish va aniq yetkizish malakasiga ega samarali vosita sifatida qo'llab ko'rish tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ашуркова С. Ф., Умматов А. А. МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИЛОВОЙ И ПЛАНИРУЮЩИХ ПОДАЧ В ПРОЦЕССЕ СОРЕВНОВАТЕЛЬНЫХ ИГР В ВОЛЕЙБОЛЕ //Fan-Sportga. – 2023. – №. 2. – С. 6-9.

2. Zokhirjonovich I. F. et al. YOSH VOLEYBOLCHILARNI DASTLABKI TEXNIK USULLARGA O'RGATISHDA MAXSUS BOSHLANGICH MASHQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI //Gospodarka i Innovacje. – 2023. – Т. 35. – С. 724-728.\

3. Акбаров А., Умматов А., Екубова О. Сравнительный анализ эффективности нападающих действий команд волейболисток высшей лиги в играх 1-и 2-туров XXVIII чемпионата Республики Узбекистан //Спортивні ігри. – 2022. – №. 2 (24). – С. 4-11.

4. Умматов А. А. МЕТОДИКА ОЦЕНКИ ПРЫЖКОВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ У ВОЛЕЙБОЛИСТОВ КАК ВЕДУЩЕГО ФАКТОРА СОХРАНЕНИЯ

РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ АТАКИ И БЛОКИРОВАНИЯ В ХОДЕ СОРЕВНОВАТЕЛЬНЫХ ИГР //Игровые виды спорта: актуальные вопросы теории и практики. – 2018. – С. 224-227.

5. Умматов А. А., Акбаров А. Волейбол бўйича XXVIII ўзбекистон чемпионати ғолиби, “СКУФ” жамоаси кизлари жамоавий техник ҳаракатларининг самарадорлик коэффициентлари //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – С. 18-20.

6. Umbetova M. A., Kubeysinova U. T. Yosh basketbolchilarda kuch sifatini o‘yin mashqlari yordamida rivojlantirish //International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 111-116.

7. Умбетова М. А. БАСКЕТБОЛ ТЎГАРАКЛАРИДА МАШҒУЛОТ ВА МУСОБАҚА ЎЙИНЛАРИ ОЛДИДАН ЎТКАЗИЛАДИГАН АНЪАНАВИЙ МАЗМУНЛИ ЧИГИЛЁЗДИ МАШҚЛАР САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШ //Fan-Sportga. – 2021. – №. 3. – С. 38-39.

8. Ganiyeva F. V. YOSH BASKETBOLCHILARDA RAQIBNI YENGIB O‘TISHDA CHALG‘ITUVCHI FINTLARNI QO‘LLAB RAQIBNI YENGIB O‘TISH TEZLIGINI O‘RGANISH //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 33. – С. 24-29.

MAXMUR IJODINING O'RGANILISH TADRIJI**Avezova Anajon Ko'paysin qizi**

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

anajonavezova9309@mail.ru**Temirov Jamoliddin Elmirza o'g'li**

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

jtemirov9319@gmail.com**ANNOTATSIYA**

XIX asr o'zbek she'riyati faqatgina son va sifat jihatdan yuksalibgina qolmay, o'nlab yangi ijodiy urinishlar, o'zgacha hajviy janrlarning hajviyot olamiga olib kirilishi, qator yangi she'riy, hajviy usullarning kashf etilishi bilan ham ahamiyatlidir. Ular o'zbek she'riyatining bundan keyingi kamolotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: *mumtoz adabiyot, tazkira, devon, yumor, hajviyot, adabiy muhit, ijtimoiy voqelik*

ABSTRACT

Uzbek poetry of the 19th century not only increased in terms of quantity and quality, but was also significant with dozens of new creative attempts, the introduction of special satirical genres into the world of satirical, and the discovery of a number of new poetic and satirical methods. They strongly influenced the further development of Uzbek poetry.

Keywords: *classic literature, tazkirah, devan, humor, comedy, literary atmosphere, social reality.*

KIRISH

Qo‘qonda yashab ijod qilgan Maxmur hayoti va ijodiga doir ma‘lumotlar unchalik ham ko‘p emas. Adabiyotshunoslar va adabiyot ixlosmandlariga uning ilk bora “Guliston” jurnalida bosilib chiqqan “Hapalak” she‘ri ma‘lum edi. Ushbu she‘rdan keyin Maxmur ijodi maktablarning adabiyot darsliklariga kiritilgan va oliy o‘quv yurtlari uchun tayyorlangan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”¹ da hamda “O‘zbek poeziyasining antologiyasi” ham bosilib chiqqan.

Undagi ma‘lumotlarga ko‘ra: “Maxmur haqida juda oz ma‘lumotga egamiz. Fazliy “Majmuat-ush-shuaro”da Maxmurning Umarxon saroyida yashagan mashhur olim va shoir Akmalning o‘g‘li ekanini aytadi. Maxmurning hayoti haqida boshqa ma‘lumotlarga ega emasmiz”² – deb aytilgan. Yuqorida ta‘kidlangan Fazliy qalamiga mansub “Majmuat-ush-shuaro” tazkirada Maxmurning 500 ta g‘azali kiritilgani ma‘lum. XX asrning 50-yillarida Maxmurning ilk devoning topilishi o‘qituvchi Po‘latjon Qayumov va Asqarali Hamroaliyev (Charxiy)lar nomi bilan bog‘liq. Bu qo‘lyozma devon o‘z tarkibiga Maxmurning hajviy yumoristik she‘rlari, tarix va qasidalarini o‘z ichiga olganligi qayd etilgan.

Qo‘lyozmani ko‘chirgan kishining nomi, shuningdek shoirning ijod namunalarining yozilgan yili va qo‘lyozmaning qachon yozilganligi yoki ko‘chirilgan yili haqida ma‘lumotlar uchramaydi. Faqat bir she‘rning yozilgan yili hijriy 1229-yil (1813—1814) deb ko‘rsatilgan.

“Bu devonda shoirning 3417 misrani tashkil etgan 69 asari bo‘lib, ular muxammas, mustahzod, g‘azal, masnaviy, ruboiy, qit‘a va bahri madid shaklida yozilgan she‘rlardir.”³ Ushbu devon Maxmur butun ijodiy faoliyati davomida yaratilgan adabiy merosining satirik va yumoristik merosini o‘z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, Maxmur hayotiga doir ma‘lumotlar kamligi sababidan biz uning hayotiga oid voqea-hodisalarni o‘rganishda Maxmurning

¹ Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси, т. II, б. 224, Тошкент.

² Ўзбек поэзиясининг антологияси, б. 189, Тошкент, 1948.

³ Азиз Қаюмов. “Махмур.” Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти. Тошкент-1958.

asarlariga, davr adabiy muhitiga, shuningdek, o'sha davrda yozilgan bayoz va to'plamlarga murojaat qilamiz.

XVIII asr I yarmida Qo'qonda adabiy muhit uchun yetarlicha harakatlar boshlangan. Jumladan, bu borada Mirzo Olim "Ansob us-salotin" asarida 1732-1733-yillarda Abdulkarimxon davri haqida shunday yozgan: "Abdulkarimxon... xizmatiga eshon, domullo, Olim Konibodomiy va domullo Vali Xojandiy va Mashrabi devonayi Namangoniy kelib suhbat tutar erdilar. Alarning suhbatidin ifoda va istifoda topib, necha umumiy diniy va kashf yaqinig'a olim va koshif bo'lib kamolot hosil qildi."¹

Qo'qonda adabiy muhitning eng gullagan davri Amiriy taxallusi bilan she'rlar bitgan shoh va shoir Amir Umarxon (1787-1822) nomi bilan bevosita bog'liq. Amir Umarxon siyosiy hayot bilan bir qatorda ilm-fan rivoji, adabiyot va san'atga ham katta e'tibor bergan. Xonlik hududidagi barcha iqtidorli ijodkorlarni saroyga jamlab, faol ijodiy jarayonni tashkil etgan. Ushbu adabiy jamoadagi ijodkorlar o'zlarini turli yo'nalishlarda namoyon eta olgan.

NATIJALAR

Tarixnavislik, tazkiranavislik, she'riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning bebaho namunalari yaratilgan. Avazmuhammad Attorning "Tuhfat ut-tavorix", Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Mushrifining "Shahnomayi Nusrat payom" Is'hoqxon To'raning "Tarixi Farg'ona", Mushrifing "Ansob us-salotin va tavorixi Xavoqin" kabi tarixiy asarlari, Fazliy Namangoniyning "Majmuayi shoiron" tazkirasi mazkur ijod qaynagan davrda yaratilgan, u haqdagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. Umarxon tashabbusi bilan dunyoga kelgan Fazliy tazkirasi tazkiranavislikda yangi yo'nalishni shakllantirgani bilan alohida ahamiyatga ega. Keyinchalik bu an'ana boshqa adabiy muhitlarga ham ko'chgan.

"Qo'qon adabiy muhitida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'zlashtirishga, jamlashga, yozma adabiyot bilan uyg'unlashtirishga katta e'tibor berilgan. Bu harakatning noyob mahsuli sifatida Gulxaniyning «Zarbulmasal» asarini eslash kifoya.

¹ А.Қаюмов. Қўқон адабий муҳити. Тошкент-1961, 41-бет. Ансоб ус-салотин, 18-бет.

Uvaysiy, Nodira, Fazliy, Ado, Maxmur, Amiriy kabi ijodkorlarning asarlarida ham xalqona hikmatlardan, iboralardan unumli foydalanish ko‘zga yaqqol tashlanadi.”¹

MUHOKAMA

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Qo‘qon adabiy muhitining o‘ziga xos zalvorli o‘rni borligi hech kimga sir emas. Qo‘qon adabiy muhitida tarbiya topgan va ijod qilgan Uvaysiy, Nodira, Gulxaniy, Maxmur, Fazliy kabi bir qancha ijodkorlarning ilmiy meroslarisiz bu jarayonning ko‘lamini so‘z bilan ifodalash qiyin.

Shoir va adiblarning ijodiy yutug‘ining rivojida “amir ul-mo‘minin” Amir Umarxonning beqiyos o‘rni va uning rahnamoligiga alohida e‘tibor bergan taniqli adabiyotshunos Abdurauf Fitrat “XVI asrdan so‘ngra o‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash”² nomli maqolasida Qo‘qon adabiy muhitidagi Farg‘ona adabiyotiga alohida e‘tibor qaratgan.

Fitrat Amir Umarxon boshchiligida va homiyligida yaratilgan Gulxaniyning “Zarbulmasal” asariga to‘xtalib, “bu davrda Farg‘ona saroy adabiyotlarining xalq adabiyotig‘a ayricha diqqat qilg‘anlari ham ko‘riladir”³, deya qayd etgan.

XULOSA

Mustaqillik yillarida esa Maxmur ijodini o‘rganishda Muhammadali Mahmudovning xizmatlarini alohida e‘tirof etish kerak. Olim Maxmur ijodini o‘rganishda bir qator izlanishlar olib borgan, ilmiy izlanishlari natijasida “Maxmur hajviyotining uslubiy xususiyatlari” nomli ilmiy unvon olish uchun yozilgan nomzodlik dissertatsiyasini hamda Maxmur satirasini keng yoritish maqsadida yozilgan “Qahqahaning qudrati” ilmiy risolasini tilga olib otish joizdir. Ushbu risolada kulgining ahamiyati jamiyatda ko‘p gapirilganiga qaramay, u haqida ba‘zi bir salbiy qarashlar mavjudligi sir emasligi, ushbu “qurol”ni ma‘lum maqsadni niyat qilib ishlatilsa, uning ta‘sir ko‘lami katta bo‘lishi Maxmur ijodi misolida izohlab berishga harakat qilingan.

¹ N.Jumaxo‘ja, I.Adizova. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Toshkent-2020, 280-bet.

² А.Фитрат. Танланган асарлар, II жилд, Тошкент-2000.

³ А.Фитрат. Танланган асарлар, II жилд, Тошкент-2000, 59-бет.

Ushbu amalga oshirilgan tadqiqot va izlanishlar Maxmur ijodini o‘ragnishda salmoqli ishlar amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Lekin shu paytga qadar shoir she‘riyatining ijtimoiy voqelikni ochib berishdagi badiiy qiymati o‘rganilmagan jihatlardan biri ekanligi ma’lum bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси, т. II, б. 224, Тошкент.
2. Ўзбек поэзиясининг антологияси, б. 189, Тошкент, 1948.
3. Азиз Қаюмов. “Махмур.” Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти. Тошкент-1958.
4. А.Қаюмов. Қўқон адабий муҳити. Тошкент-1961, 41-бет. Ансоб ус-салотин, 18-бет.
5. N.Jumaxo‘ja, I.Adizova. O‘zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Toshkent-2020, 280-bet.
6. А.Фитрат. Танланган асарлар, II жилд, Тошкент-2000.

QOBILIYAT VA IQTIDORNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Komilova Aziza Sunnatullayevna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Saydullayeva Diyora Rustamjon qizi

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qobiliyatli va iqtidorli bolalarni topish va ularning qobiliyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish, bolalarda alohida qobiliyatning namoyon bo'lishiga zamin yaratuvchi omillar haqida ma'lumotlar berilgan.

***Kalit so'zlar:** shaxs, bola, qobiliyat, iqtidor, rivojlanish, kasbiy mahorat, oila, individuallik, individual xususiyatlar.*

Kelajak egalari bo'lmish yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor hamma davrda ham dolzarbligini yo'qotmaydigan eng muhim masaladir. Yoshlardagi shijoat va intilishni alohida pedagogik muammo sifatida o'rganish esa ularni hayotga tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qobiliyatli va iqtidorli bolalarni topish va ularning qobiliyatlari va intilishlarini maqsadli rivojlantirish, kasbiy mahoratlarini oshirishga keng imkoniyatlar yaratish bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishni tashkil etish, madaniy, musiqiy estetik talablarini qondirish, kasb-hunarga yo'naltirish, qobiliyatli yoshlarni aniqlash, ularga ta'lim-tarbiya berish va qo'llab-quvvatlash masalasiga davlat siyosati darajasida ahamiyat berila boshladi. XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologiya fanida shaxs iqtidori, qobiliyatlilik darajasi, qobiliyatni maqsadli rivojlantirish masalalarini tadqiq etishga kirishilgan. N.S.Leytes, M.Karne,

V.S.Blum, B.Klark, J.Uitmor, A.Sh.Shvedel, R.S.Stounberner, L.Termen kabi olimlar tomonidan qobiliyatlilik va uning darajalarini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi, shuningdek, qobiliyatli shaxslarning o'ziga xos pedagogik-psixologik sifatlarining tadqiq etilishi hamda ular bilan munosabatni to'g'ri tashkil etish yuzasidan tavsiyalarning ilgari surilishi nafaqat soha rivojini ta'minlab qolmay balki, qobiliyatli shaxslarning "cheksiz imkoniyatlari"dan samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatib berdi.

J.Uitmor quyidagi omillar bolalarda alohida qobiliyatning namoyon bo'lishiga zamin yaratishini asoslab berdi:

1. Mukammallikka intilish (perfeksionizm). Qobiliyatli bolalar uchun kamolotga intilishning ichki ehtiyojiga egalik xosdir. Ular yuqori natijalarni qo'lga kiritmagunlaricha tinchimaydilar. Buning ilk ko'rinishi juda yoshlikdan ko'zga tashlanadi.

2. Qoniqmaslik tuyg'usiga egalik. O'z-o'ziga bunday munosabatda bo'lish qobiliyatli bolalar nima bilan shug'ullansa ularning barchasida mukammal bo'lishga intiluvchi bolalarga xos xususiyat sanaladi. Ular shaxsiy yutuqlariga tanqidiy yondashadilar, ko'p holatlarda ulardan qoniqmaydilar, bundan o'z-o'zini noto'g'ri va past baholash hissi yuzaga keladi.

3. Noreal (amalga oshish imkoniyati kam bo'lgan) maqsadlarga egalik. Qobiliyatli bolalar odatda o'z oldilariga yuksak maqsadlarni qo'yadilar. Qo'yilgan maqsadlarga erishish imkoniyatiga ega bo'lmasalar, ular tashvishlana boshlaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, mukammallikka intilish yuksak yutuqlarga erishish imkonini beruvchi kuchdir.

4. O'ta sezgirlik. Qobiliyatli bolalar eshitish imkoniyatining yuqoriligi tufayli ular munosabat va aloqalarni yaxshi tushunadilar, ular nafaqat o'zlariga, shu bilan birga atrofdagilarga nisbatan ham tanqidiy munosabatda bo'ladilar. Qobiliyatli bolalar juda ta'sirchan bo'lib, ular atrofdagilardan o'zlariga nisbatan bildirilayotgan yoqimsiz so'z yoki so'zsiz harakatlarning paydo bo'lishi bilanoq qabul qiladilar. Doimiy ravishda turli ko'rinishdagi salbiy ta'sirlarga javob beraverish oqibatida bunday bolalar ko'p hollarda giperfaol va tez chalg'iydigan bo'lib qoladilar.

5. Kattalarning e'tiborlariga ehtiyoj sezish. Tabiatan qiziquvchanliklari va bilishga bo'lgan intilish ko'p hollarda o'qituvchilar, ota-onalar va boshqa katta yoshli kishilarning e'tiborlari o'zlarigagina qaratilishini xohlaydilar. Bu boshqa bolalar bilan munosabatlarda bunday istakni keskinlashtiruvchi ziddiyatni keltirib chiqaradi.

6. Sabrsizlik. Qobiliyatli bolalar ko'p holatlarda aqliy jihatdan o'zlariga nisbatan past salohiyatga ega bolalarga nisbatan sabrsizlik bilan munosabatda bo'ladilar. Shu sababli ular toqatsizlik va sabrsizlikni ifodalovchi tashqi tanbehlariga duch keladilar.

Qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish uchun bolaga individual yondoshish va har bir inson dunyoga kelganda o'ziga xos tug'malik alomatiga ega bo'lgan layoqat bilan tug'ilishi va bu layoqatlarni qobiliyat darajasiga chiqarish uchun unga ta'sir etuvchi omillarga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Bu ko'p jihatdan bola shaxsining shakllanishiga ta'sir etuvchi oila va bolaning atrofidagi insonlarning psixologik bilimlarini qay darajada yetarli ekanligi va shu psixologik madaniyatini qay darajada ishga solgan xolda bolaga ta'sir ko'rsata olishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Shuningdek o'quvchilarning qobiliyat va iqtidorini rivojlantirishda ular uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim omillardan biri sanaladi. 1980 yillarda amerikalik olimlar M.Karne, A.Shvedel va S.Minnemayerlar o'quvchilar qobiliyati va iqtidorini rivojlantirish maqsadida maxsus dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarning inobatga olinishi muhim ekanligini alohida qayd etib o'tganlar:

1. Har bir bola takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlarga ega.
2. Qobiliyatli bolalar o'zlariga nisbatan nihoyatda tanqidiy yondashadilar va ko'p hollarda u qadar ijobiy bo'lmagan "Men" obraziga egaliklari bilan ajralib turadilar.
3. Oila qobiliyatli bolalarga ta'lim berishda yetakchi o'rinni egallashi lozim.
4. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dasturda ularning qiziqish va ehtiyojlariga muvofiq keluvchi turli-tuman o'quv materiallari o'rin olishi kerak.

5. Qobiliyatli bolalar uchun ishlab chiqiladigan dastur uning har tomonlama – harakat, hissiy, shuningdek, muloqot malakalarini shakllantirishdagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashi hamda ularni rivojlantirishga yordam bera olishi zarur.

6. Qobiliyatli bolalar “bilimlarni o‘rtacha o‘zlashtiruvchi” o‘quvchilar bilan bir guruh (sinf)da o‘qitilganda xuddi o‘zlari singari qobiliyatli bolalar bilan muloqot qila olish imkoniyatlariga ega bo‘lishlari kerak.

7. Bu kabi dasturlarni amalga oshirishga maxsus tayyorgarlik va qobiliyatli bolalar bilan ishlash tajribasiga ega mutaxassisning rahbarlik qilishi yuqori natijalarni qo‘lga kiritishga imkon beradi.

8. Qobiliyatli bolalar uchun namunaviy dasturlar o‘quvchilarni bir ta‘lim muassasasida uzluksiz o‘qitishni talab etadi.

9. Ota-onalar va mutaxassislar uchun bola oldiga qo‘yiluvchi maqsadlar va ularni amalga oshirish yo‘llarini aniqlashga bo‘lgan munosabatlarda hamkorlik qilish muhim sanaladi.

10. Dasturning ajralmas qismi bola muvaffaqiyatlarini baholovchi tizim bo‘lishi lozim.

11. Dastur o‘zida ota-onalar ham muhim rol o‘ynaydigan qobiliyatlilikning namoyon bo‘lishini ta‘minlovchi yaxshi tashkillashtirilgan, samarali va doimiy harakatdagi tizimni qamrab olishi lozim.

12. Dastur bolaning rivojlanishini ta‘minlovchi hamda bir darajadan ikkinchi darajaga samarali va izchil o‘tishi uchun zarur imkoniyatga ega bo‘lishi zarur.

13. Dastur maqsadlariga erishishga bo‘lgan intilishni rivojlantira olishi kerak.

14. Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish – dasturning muhim maqsadlaridan biri sanaladi.

15. Qobiliyatli rahbarlarni iqtidorli bolalarga ta‘lim berishga jalb etishning zaruriy yo‘llarini topish maqsadga muvofiqdir.

Oliy o‘quv yurti talabalarida ijodiy qobiliyatning namoyon bo‘lishi ular tomonidan kasbiy faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishda ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ijodiy qobiliyatli o‘qituvchi ta‘lim va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonini o‘zgacha bir ko‘tarinkilik asosida tashkil etishga erisha oladi. Qobiliyatlilik o‘quv mashg‘ulotlari va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni noan‘anaviy shakl, metod va vositalar yordamida uyushtirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishga, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda ixtiyoriy qatnashishga,

o'z imkoniyatlarini namoyon etishga rag'batlantiradi. M.G.Davletshin, E.G'oziev, Sh.Baratov, A.A.Leontev, V.S.Merlin, R.S.Nemov, R.V.Ovcharova va boshqalarning ishlarida shaxs qobiliyati, uning turli yo'nalishlarda namoyon bo'lishi, qobiliyatli o'quvchilarning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari, o'quvchi qobiliyatini rivojlantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlari kabi masalalar o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin. M.G.Davletshin, E.G'oziev, R.S.Nemov, A.B.Orlov, A.A.Leont'ev, E.Z.Usmonova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham aqliy va jismoniy qobiliyat, ularni rivojlantirish shartlari, qobiliyatlikning umumiy va xususiy ko'rinishlari, qobiliyatli o'quvchilarni o'qitish muammolarining yoritilishiga alohida o'rin ajratilgan.

Xulosa qilib aytganda o'quvchi qobiliyatini rivojlantirishda ta'lim muassasasi va oilaning o'rni, o'qituvchilar hamda oila a'zolarining o'quvchi qobiliyatini rivojlantirishdagi ishtiroki, o'quvchi qobiliyatini rivojlantirishga nisbatan umumiy va yakka tartibda yondoshuv masalalari muhim ahamiyatga egadir. Qobiliyatli bolalarni tanlash va ularni o'qitish bir qator pedagogik shart-sharoitlarni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Drujinin V.N., Umumiy qobiliyatlar psixologiyasi. Sankt-Peterburg: Peter, 2008.
- 2.Teplov B. M. Qobiliyat va qobiliyat. // Shaxsiy farqlar psixologiyasi. Matnlar. M.: Moskva.
- 3.Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.
